

## AFG'ON RUBOBIDA IJROCHILIKNING AYRIM MASALALARI



**Rustamov Shaxzodbek Shuxratjon o'g'li**  
 Namangan davlat universiteti Jahon tillari fakulteti  
 Yoshlar bilan ishslash bo'yicha dekan o'rnbosari  
[atribut\\_85@mail.ru](mailto:atribut_85@mail.ru)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonda musiqa san'atiga berilayotgan e'tibor, xususan cholg'u ijrochiligi san'atida muhim o'rin tutgan afg'on rubobi ijrochiligi va uni o'rgatish uslubiyoti atroflicha tahlil etilgan. Shuningdek, afg'on rubobida ijrochilik apparatini sozlash, ijrochining o'tirishi va rubobning holati, noxun, qo'l, barmoqlarning holati va tovush chiqarish usullari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** madaniyat, ijrochilik san'ati, afg'on rubobi, noxun, qo'l, barmoqlar, tovush chiqarish usullari, ebonet, xarrak.

**Аннотация:** В статье подробно анализируется внимание, уделяемое музыкальному искусству в Узбекистане, в частности, исполнительству на афганском рубабе, занимающему важное место в искусстве инструментального исполнительства, и методике преподавания. Также даются рекомендации по настройке исполнительского аппарата на афганском рубабе, положению исполнителя и рубаба, положению нохуна, рук, пальцев и способам звукоизвлечения.

**Ключевые слова:** культура, исполнительское искусство, афганский рубаб, нохун, руки, пальцы, способы звукоизвлечения, эбонет, харрак.

**Abstract:** This article provides a detailed analysis of the attention paid to the art of music in Uzbekistan, in particular, the performance of the Afghan rubab, which considers an important place in the art of instrumental performance, and the methodology of teaching it. Also, recommendations are given on the adjustment of the performance apparatus in Afghan rubab, the position of the performer and the rubab, the position of the nokhun, hands, fingers, and methods of sound production.

**Keywords:** culture, performing arts, Afghan rubab, nokhun, hands, fingers, methods of sound production, ebonet, harrak.

Bugun Yangi O'zbekistonda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va madaniy merosimizga, san'at olamida kerakli o'rin tutgan o'zbek xalq cholg'ulariga e'tibor yanada kuchaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.11.2018-yil PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda 2022-yil 2-fevraldag'i PQ-112-sonli "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish bo'yicha besh muhim tashabbusida ham yoshlarni san'at turlariga jalb qilish, xususan, musiqa san'ati yoshlar orasida o'rgatish asosiy masala sifatida ko'rsatilgani ham buning yaqqol misolidir. Bu o'rinda azaliy an'analarimizni tobora to'laroq tiklash, moddiy va ma'naviy durdonalarimizni, shu jumladan, musiqa merosimizni mufassal o'rgana borish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Uni yosh avlodlar tomonidan ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish hamda amaliy-ijodiy jihatdan puxta o'zlashtirish uchun so'ngi yillarda barcha zaruriy shart-sharoitlar yuzaga keltirganini e'tirof etish lozim.

Milliy musiqa madaniyatimizning har qachongidan chuqurroq va atroflicha o'rganish, uni

xalq ichida keng targ‘ib qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Binobarin, o‘zbek musiqa madaniyati va uning asosiy qismlaridan biri bo‘lgan cholg‘ular va cholg‘u musiqasi qadim-qadimdan boy va murakkab tasviriy imkoniyatlarga egadir. Ular barcha xalqlar musiqasi kabi o‘ziga xos tarix va an’analarga boy. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan milliy cholg‘ularimiz va musiqamizning ajoyib na’munalari o‘zining rang-barang jilosi, ohangrabo kuylari bilan kishilarga huzur baxshida etmoqda.

Ma’lumki shaxsning har tomonlama barkamol bo‘lib yetishishi uchun ijrochilik bilan birga xalq og‘zaki ijodiyotining professional janri bilan oshno qilishning o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, ularni hal etishda musiqiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarga ijrochilik mahoratlarini shakllantirishda zamonaviylik bilan tarixiylik tamoyillarining uyg‘unlashtirilishi, afg‘on rubobi uchun yozilgan asarlar vositasida o‘quvchilarni ijrochilik mahoratlarini tarbiyalashga doir o‘quvmetodik qo‘llanmalar bilan o‘qituvchilarning yetarli darajada ta’minlanmagani; afg‘on rubobi uchun yozilgan asarlarning ko‘p tarmoqli va mahalliy an’analarga ega ekanligi, ularning o‘xhash ekanligi va o‘ziga xosligi, mahalliy musiqiy an’analarning zamonaviy musiqa, bastakorlik va kompozitorlik ijodi sohasida namoyon bo‘lishi yetarli darajada emasligi ushbu muammoni tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Afg‘on rubobida ijrochilik va uni o‘qitish bilan bog‘liq qarashlar G‘. Ergashev[1.-B. 248.], O.Nazarov [2. –B. 108.], S. M. Taxalov, [3. –B. 104.], O.Ibrohimov[4. –B. 110.], A. Mansurov, D. Karimovalarning [5. –B.130.], tadqiqotlarida keltirilgan. Boshqa musiqa asboblarini chalishni o‘rgatilgandagi kabi, afg‘on rubobini chalishga o‘rgatishdagi eng muhim shartlardan biri ijrochilik apparatini tartibga solishdir.

Ijrochilik apparati keng ma’noda olganda, xilma-xil tushunchalarni, ya’ni ijrochining o‘tirish holati va cholg‘uning joylashtirilishi, chap va o‘ng qo‘llarning holati va harakati, nohun (mediator) ni ushlashni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun chalishga o‘rgatishning boshlang‘ich davrlarida amaliy mashg‘ulotlarga kirishilar ekan, pedagog qo‘llarni to‘g‘ti tutish, to‘g‘ri o‘tirishga alohida e’tibor berishi kerak. Sozandaning texnik tayyorgarligi davrida pedagog yo‘l qo‘ygan xato uning ijrochilik faoliyatida jiddiy kamchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu mahoratning yo‘qolishiga yoki konserf faoliyatining barvaqt tugashiga olib keladi.

Sozanda rubob chalishning zarur texnik malakalarini egallamay turib, na yakka sozda ijob etuvchi sozanda bo‘lishi, na orkestr yoki ansamblida ishtirot etishi mumkin emas pedagogning asosiy vazifasi chalish jarayonida ijrochilik apparatining hamma elementlari bir-biri bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishiga erishishdan iborat. Bunga ijrochining o‘tirishi va cholg‘uni ushslashiga qo‘yiladigan asosiy talablarga to‘g‘ri tayanch nuqtasi, rubobning nishabligi va cholg‘u pardalarining holatiga rioya qilish natijasidagina erishish mumkin. Vaholanki, yosh kadrlarni tarbiyalashdagi katta kamchiliklar aynan mana shu sohadadir.

Sozanda rubobni chalayotganda qiynalmasligi uchun qulay, shu bilan birga, tashqi tomonidan qaraganda chirolyi va ixcham o‘tirishi kerak. Chalishning sifati ko‘p jihatdan ijrochining qovushib o‘tirishiga, uyushqoqligiga, cholg‘u asbobi bilan uzviy qo‘shilib ketishiga bog‘liq.

Afg‘on rubobi o‘tirib chalinadi. Stulning suyanchig‘iga suyanmasdan, uning yarmiga o‘tirish maqsadga muvofiqdir. Stulning chekkasiga o‘tirmaslik kerak, chunki bunday holda butun gavda qisilganday bo‘ladi va sozanda tez charchaydi. O‘ng oyoq chap oyoq tizzasiga qo‘yiladi.

To‘g‘ri o‘tirilganda afg‘on rubobida uchta asosiy tayanch nuqtasi bo‘ladi. Bunda rubob korpusini ong oyoq soniga qo‘yish (birinchi tayanch nuqta), shundan so‘ng o‘ng qo‘l bilagini korpusning yuqori qismiga osiltirib qo‘yib (ikkinchi tayanch nuqta), ko‘krakning o‘ng tomoni bilan korpusni bir oz qisish lozim (uchinchi tayanch nuqta). Asbobning dastasini ushlab turuvchi chap qo‘l to‘rtinchi, qo‘shimcha tayanch nuqta hisoblanadi. Asbobning dastasi taxminan chap yelka balandligida ushlab turiladi. Stulga o‘tirgan paytda sozanda gavdasini bir oz oldinga – asbobga tomon chiqarib, egilmay o‘tirishi, boshini dasta tomonga yarim burib to‘g‘ri tutishi lozim. Gavdani oldinga harakatlantirganda uning og‘irlilik tayanchi o‘ng oyoqqa ko‘chiriladi. Asbobning korpusi ham shu oyoqda turadi. Bunday o‘tirish rubobning mahkam ushlab turilishini ta’minlaydi va bunda uning holati o‘zgarmaydi. Sozanda rubobni bir oz o‘ziga tomon burib ushlashi kerak. Shunda uning pardalari yaxshi ko‘rinib turadi, bu esa ijrochining qo‘llarini pardalar ustidan aniq yurgizishiga

yordam beradi. Cholg‘uni haddan tashqari burib yuborish o‘ng qo‘l holatini buzadi va panjalarning erkin harakatlanshini qiyinlashtiradi.

O‘ng qo‘l bilakning yassi tomoni bilan cholg‘u korpusining yuqori chetiga (yuqori qopqoq burchagiga), torlar boylanadigan tugmalardan yuqoriroqqa qo‘yiladi va dastaga posangi bo‘lib qoladi. Bunda noxun xarrak bilan dasta oxirining o‘rtasiga to‘g‘ri keladigan, ya’ni u eng chiroyli va to‘la qimmatli tovush hosil bo‘ladigan joyda torlargacha uriladigan qilib tayanish kerak. Qo‘l bilakdan bukiladi. O‘ng qo‘lni cholg‘uning qirrasiga bilakka juda yaqin qilib yoki tirsakning yonginasiga qo‘yish kerak emas, aks holda, chiqarilayotgan tovush yoqimsiz bo‘ladi.

Birinchi holda, ya’ni korpusning qirrasiga bilakni juda yaqin qo‘yganda keskin, chinqiroq tovush, ikkinchi holda jilosiz, past tovush hosil bo‘ladi. Bundan tashqari, cholg‘uga moslashish ham noqulay bo‘ladi. Bu bilakning qisilib qolishiga va panjalarning tez charchashiga olib keladi.

Bilakning holatini aniqlashda panjalarning pastga va yuqoriga erkin harakatlana olishini ta‘minlash zarurligidan kelib chiqish kerak. Harakat faqat panjalar bilan bajarilib, bilak salgina harakatlangan taqdirdagina erkin, uzoq vaqt chalish mumkinligini aytib o‘tish lozim.

Panja pastga va yuqoriga tebranganda bilak bir oz yoyiladi va panjalarning u yoq-bu yoqqa erkin borib kelishini ta‘minlaydi. Rasmida panjalar qanday bukilishi ko‘rsatilgan. U panjalarning o‘zini uzoq vaqt harakatlantirib turish imkonini beruvchi asosiy shartdir. Qo‘lni bo‘g‘imlarda juda ham ko‘p bukib yuborish maqsadga muvofiq emas. Panjalarning ko‘p bukilishi bilakni qisib qo‘yadi.

Afg‘on rubobini chalishda noxun, qo‘l, barmoqlarning holati va tovush chiqarish usullari juda muhim. Noxun ebonite yoki plastmassadan tayyorlanadi. An‘anaviy ijrochilikda yog‘och yoki suyakdan tayyorlangan noxundan foydalanilgan. Ebonit noxun ancha pishiq ishlatishga qulay hisoblanadi. Chalgar vaqtida u yedirilmaydi, tiniq to‘la qimmatli tovush chiqaradi.

Noxun qattiq, egilmaydigan bo‘lishi kerak. Uning uzunligi 2.5 – 3 sm. Noxunning uchi (ishchi qismi) ning kengligi 5 – 6 mm, qo‘l bilan ushlab turiladigan qismining kengligi 8 – 10 mm.

Chalayotganda noxun qo‘ldan sirg‘alib tushib ketmasligi uchun keng qismiga o‘yiqlar (ikki tomondan) qilinadi yoki u leykoplastir bilan bir ikki qavat o‘raladi.

Noxun o‘ng qo‘lning ko‘rsatkich va va bosh barmoqlari bilan ushlanadi. Ko‘rsatkich barmoq go‘yo yarim aylana hosil qilgan tarzda bo‘g‘inlari bukiladi. Noxun shu barmoqning birinchi (chekka) bo‘g‘imiga yaqinroq, ya’ni tirnoqqa yaqin tutilib, ikkinchi tomonidan esa bosh barmoqning etli qismi bilan qisiladi. Ko‘rsatkich va bosh barmoqlar tuxumsimon shakl hosil qilishi lozim.

Boshqa barmoqlar (o‘rta, nomsiz barmoq va jimjiloq) ko‘rsatkich barmoqqa bukilib, birlashtirilishi kerak. Bunda ularning chekka bo‘g‘inlari ko‘rsatkich barmoq uchun tayanch bo‘lishi va bosh barmoqqa nisbatan posangi tashkil etishi lozim. Barmoqlarni o‘rta bo‘g‘imlarda keng yozish tavsiya etilmaydi, chunki harakatning erkinligiga putur yetadi. Noxunni ko‘rsatkich barmoqqa qisib turuvchi bosh barmoqning birinchi va ikkinchi bo‘g‘inlari bir oz bukilishi kerak.

Noxunni bosh barmoqning uchi bilan tik ushslash yoki ko‘rsatkich va bosh barmoqlarning bukilgan joylarida tutib turish mumkin emas. Bunday holda qo‘lni erkin tutish va noxunni sezish unutiladi.

Chalish paytida noxun ko‘pincha barmoqlarni (ko‘rsatkich va bosh barmoqni) goh oldiga, goh orqaga harakatlantirish bilan boshqariladi. Bu chalish vaqtida chiqayotgan tovushni tartibga solish (to‘g‘rilash) ga imkon beradi. Masalan, barmoqlar oldinga (yon tomonga) harakatlanganda ularning tayanch nuqtasi bosh barmoq yostiqchasiga tushadi. Bir tomonga (pastga) qaratib chalish va akkordli chalish usuli ijro etilganda bunday tayanch ayniqsa zarur. Rez va qo‘sh zarb usullari ijro etilganda noxun orqaga (o‘zi tomonga) tortilib, katta va ko‘rsatkich barmoqlar bir xil tayanch vazifasini o‘taydi.

O‘quvchining texnik tayyorgarligi, barmoqlarning chaqqonligi, pardalarda erkin harakatlansh va umumiy tovush hosil qilish madaniyati chap chap qo‘lning to‘g‘ri qo‘yilishiga bog‘liq.

Chalish vaqtida cholg‘uning dastasi pastki qirrasi bilan ko‘rsatkich barmoq asosiga qo‘yilishi, yuqori qirrasi esa bosh barmoqning birinchi bo‘g‘imi yostiqchasi bilan qisib olinishi

kerak. Uning dastasi kaftga va bosh barmoq asosiga tegib turmasligini kuzatib boriladi. Buning uchun bosh barmoqni, u qaysi holatda turishidan qat’iy nazar, torni bosayotgan ikkinchi barmoq qarshisiga qo‘yish kerak. Bunda bosh barmoq uchini dasta ustidan chiqarib turish, uni yon tomonga olish, shuningdek, uning uchi bilan dastaga taysiya etilmay

Bosh barmoqning bunday holati butun qo‘l panjalarining dastani to‘g‘ri tutishiga imkon bermaydi. Panjalar bo‘g‘imlardan bukilmasdan bilakning to‘g‘ri chizig‘ini davom ettirishi lozim. Bilakni zo‘riqtirmay, erkin tutiladi.

Chalish vaqtida ijrochining gavdasidan chetga burilmaydi ham, unga yopishtirilmaydi ham. Ko‘rsatkich, o‘rta, nomsiz barmoqlar va jimjiloqni bo‘g‘imlardan bukish, oxirgi bo‘g‘imlarni esa cholg‘u torlariga nisbatan tik uzatish kerak. Pardalarda turgan barmoqlarning tirnoqlari yuzasi bilan pardaga ko‘ndalang emas, balki korpus tomonga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Chap qo‘l barmoqlari chalish vaqtida turli xil harakatlarni bajaradi. Bu barmoqlar musiqa asarining juda murakkab bo‘lib, ustalik bilan ijro etishni talab qiladigan qismini chalishda ham, kantilena xarakteridagi asarlarni ijro etishda ham ko‘p jihatdan ijrochining texnikasini oldindan belgilab turli xil harakat amalga oshiriladi. Barmoqlarning ishi afg‘on rubobi uchun xos bo‘lgan xarakterli ornamental usullarni ijro etishda ham muhim ahamiyatga ega.

Chap qo‘lning to‘g‘ri qo‘yilishi tovushning sofligini (bunga barmoqlarning “yopishqoq”ligi bilan erishiladi), barmoqlarning chaqqonligi va mumkin qadar charchamasligiga imkon beradi.

To‘la qimmatli tovush hosil bo‘lishi uchun torlarni barmoqlarning yostiqchalari bilan bosish kerakligi tajribada aniqlangan. Shuning uchun ular bir oz to‘g‘rilangan holatda turishi, barmoqning birinchi bo‘g‘imlarida ayniqsa “yostiqcha”lar yetarli qattiq bo‘lmasa, haddan tashqari bukilmasligi kerak.

Bir torni chalayotgan vaqtida hamma barmoqlar shu tor ustida turishi lozim. Buning uchun boshqa barmoqlardan kichik bo‘lgan jimjiloqni bukmaslik kerak. Bir tordan ikkinchi torga o‘tilayotganda barmoqlar bi oz cho‘ziladi yoki ko‘proq bukiladi.

Qo‘llarni to‘g‘ri qo‘yish malakasini hosil qilish uchun quyidagi tayyorgarlik mashqlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Pedagog yordamida o‘quvchilar to‘rtala (birinchi, ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi) barmog‘ini bir vaqtning o‘zida “lya” torining o‘rta pozitsiyalaridan biriga (bu yerda qo‘l qulay holatda bo‘ladi) qo‘yadilar. Qo‘llarning to‘g‘ri qo‘yilganligini tekshirgach, o‘quvchi torni dastlab yengilgina, keyin esa qattiq bosadi. Torni bosish va qo‘yib yuborish bir necha marta takrorlanadi. Torni qo‘yib yuborgandabarmoqlar sal ko‘tariladi, xolos. To‘rtala barmoqni bir vaqtning o‘zida torning ustiga qo‘yish ularni pardalar ustiga to‘g‘ri joylashtirish va qo‘lni talab qilingan holatda qo‘yishni osonlashtirish uchun taysiya etiladi. Agar barmoqlar navbat bilan (oldin birinchi barmoq, keyin ikkinchi va hokazo) torga qo‘ylisa, torga qo‘yilmagan barmoq dastaning tagida qolishi mumkin. Pedagogik tajribada bu tez-tez uchrab turadi va qo‘shimcha harakatlarni talab etadi.

O‘quvchi hamma barmoqlarini bir yo‘la tor ustiga tushiradi va torni bir oz bosadi, shundan so‘ng barmoqlar ko‘tariladi. So‘ngra bu mashq har bir barmoq bilan alohida-alohida takrorlanadi.

O‘quvchi pedagog yordamida ko‘rsatilgan hamma mashqlarni takrorlab, qo‘lini birinchi pozitsiyaga o‘tkazadi. Bunda quyidagi muhim o‘rinlarga e’tibor berish zarur:

Torni bosayotganda qo‘l go‘yo barmoqlari bilan dastaga tayangandek bo‘ladi, ayni vaqtida bosh barmoq, uning qarama-qarshi tomoniga yo‘naltirilgan posangini tashkil etadi;

Barmoqlar erkin, aniq harakat bilan ko‘tariladi, shundan so‘ng chalish kerak paytda foydalanish uchun ular tor ustida (yon tomonga olib borilmagan holda) muallaq tutib turiladi.

Odatda chalishni endi o‘rganuvchi sozandalar bosh barmoqni dastaga noto‘g‘ri holda qo‘yadilar. Ular bu barmoqni dastaga tik qaratib qo‘yadilar yoki uni yon tomonga uzatadilar. Bunday bo‘lmasligi uchun bosh barmoq qanday pozitsion holatda bo‘lishidan qat’iy nazar, uni ikkinchi barmoq qarshisida dastaga qo‘yilgan holda tutish kerak.

Barmoqlarni to‘g‘ri qo‘yishni va qo‘lni pozitsion holatda tutib turishni o‘zlashtirib olgach, ochiq torlarni qo‘llab chalinadigan murakkabroq mashqlarga o‘tish mumkin. O‘quv-metodika vazifalariga muvofiq ravishda tanlangan xalq kuylari o‘quv badiiy adabiyotning juda qimmatli asarlaridir. Kuylarni yoki kuylardan olingen parchalarni tanlaganda ularda o‘quvchi mashqlarda

o‘rgangan (yoki ularga o‘xshagan) usullargina uchrashini hisobga olishi kerak.

Barmoq harakatlarini tartibga solish va chap qo‘lning pozitsion holatini o‘rganib olish mashqlarini o‘rta registrlarda o‘tkazish mumkin. Birinchi – oltinchi pozitsiyalar oralig‘ida chap qo‘l barmoqlarining pardalardagi holati o‘zgarmaydi. Biroq, afg‘on rubobining tuzulish xususiyatlaridan kelib chiqib, yuqori pozitsiyalarda chalinganda chap qo‘lning, ayniqsa, bosh barmoqning, holati o‘zgaradi. Buni 12-pardadan boshlab afg‘on rubobi dastasining yo‘g‘onlashgan qismidagi (bu qism kengaya borib cholg‘u asbobi korpusiga o‘tib ketadi) pardalarni bosishdagi qiyinchiliklarni yengish zarurati taqozo etadi. 7, 8, 9-pozitsiyalardachalish vaqtida dastani odatdagি holatda ushslash va uning oxirgi pardalariga bosish deyarli mumkin bo‘lmaydi. Shuning uchun bosh barmoqning o‘rni odatdagи holatdan o‘zgaradi. U birinchi barmoq bilan yonma-yon qo‘yiladi. Bosh barmoq o‘rnining o‘zgarishi qo‘lning bukilishiga sabab bo‘ladi va chap qo‘lga boshqacha holat beradi.

Afg‘on rubobi tovush chiqarish usuliga ko‘ra chertma-plektorli cholg‘ular gruppasiga kiradi. Chertma usulda, noxun yordamida tovush chiqarish va musiqa sadosining qisqaligi afg‘on rubobining chertma-plektorli cholg‘ular gruppasiga mansubligini belgilovchi muhim belgilardir.

Noxun bilan yuqorida pastga yoki pastdan yuqoriga bir marta zarb berish afg‘on rubobida tovush chiqarishning asosiy usullaridir. Tovush chiqarishning mana shu ikki usuli hamda ularni kombinatsiyalash (torlarda faqat pastga, faqat yuqoriga zarb berish, pastga va yuqoriga zarb berishni turli izchillikda birlashtirish, torlarga berilayotgan zarblar chastotasini o‘zgartirish va boshqalar) yo‘li bilan tovush chiqarishning xilma-xil usullarini hosil qilish va natijada turli tarzdagi musiqa sadosi (masalan, qisqa va cho‘ziq, ohangdor yoki kuchli, qattiq va hokazo tovushlarni) olish mumkin. Tovush chiqarishning bu usullari tovush taasurotlarini tug‘diradigan shtrix deb ataladigan turli manbalarga imkon beradi.[3.-B. 104.]

O‘quvchi yoshlarga afg‘on rubobini chalishni o‘rgatish metodologiyasi haqida bat afsil tushuntirib o‘tilgan. Shulardan, ijrochilik apparatini sozlash, ijrochining o‘tirishi, rubobning holati, noxun, qo‘l, barmoqlarning holati va tovush chiqarish usullari kiradi. Har bir o‘qituvchining dunyoqarashi, ijrochilik mahorati, ta‘lim metodikasi va uning ijrochilik to‘g‘risidagi fikrlari o‘quvchi-yoshlarni shakllantirish uchun xal qiluvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Afg‘on rubobi ijrochilik amaliyotida juda keng qo‘llaniladigan cholg‘u hisoblanib uni yaxshi o‘zlashtirish uchun o‘quvchi-yoshlar yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan metodlarga to‘g‘ri rioya qilish va ijro paytida cholg‘uni to‘g‘ri tutish muhimdir. Ijrochilik holatining to‘g‘ri bo‘lishi ijrochiga uzoq vaqt charchamasdan chalish imkoniyatini beradi. Bu esa o‘quvchining muntazam ravishda mustaqil shug‘ullanishiga yordam beradi. Ijrochilik holati bir yoki bir necha darsda o‘zlashtiriladigan jarayon emas. Xulosa shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi o‘quvchi bilan doimiy ravishda ijrochilik holati ustida ishslash davomida uni noto‘gri bo‘lib qolmasligi uchun nazorat qilib boorish talab qilinadi. Lekin shunga qaramay o‘qitishning dastlabki davridanoq o‘quvchilarda cholg‘uga nisbatan qiziqish uyg‘ota olish muhimdir. Qachonki o‘quvchida o‘rganayotgan cholg‘usiga qiziqishi bo‘lsa, shundagina cholg‘uga nisbatan mehr paydo bo‘ladi. Buning uchun o‘quvchi-yoshlar bilan samimiy munosabatda bo‘lish juda muhim ahamiyatga ega. Bunday samimiy munosabat o‘quvchi-yoshlarning nafaqat cholg‘uga bo‘lgan mehrini, balki dars jarayonidagi faoliyklariga ham katta imkoniyat yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ergashev G‘. Afg‘on rubobi darsligi. Toshkent: Bilim, 2004. – 248 b.
2. Nazarov O. Qashqar rubobi o‘qitish uslubiyoti. – Toshkent: 2008. – 108 b.
3. Taxalov S. M. Afg‘on rubobini chalishga o‘rgatish metodikasi asoslari. - Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – 104 b.
4. Ibrohimov O. va b. Musiqa: 4 – sinf uchun darslik. – Toshkent: G‘. G‘ulom nashriyoti, 2003. – 110 b.
5. Mansurov A., Karimova D. Musiqa madaniyati: 5 – sinf uchun darslik. Toshkent: G‘. G‘ulom nashriyoti, 2001. – 130 bet